

## OILA CHAMAN BOG` BO`LSA ...

**Parkent tumani 2-son FHDY bo`limi I toifali inspektori**

**X.A.Ikromova**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8095018>

A`zaldan oilaga muqaddas dargoh deb qaralgan. Undagi tinchlik, totuvlik, eng avvalo er-xotin munosabatlariga bog`liqdir. Chunki er-xotin bir-birini tushunsa e`zozlasa xar ikkisi o`zining oiladagi ma`sulliyatini his etsalar, ana shu xonadondan fayz-baraka arimaydi. Oramizda esa arzimagan gap so`zlarga, o`tkinchi qiyinchiliklarga dosh berolmay oilasiga putur yetkazayotganlar ham uchrab turadi.

Eng avvalo yoshlarning bir-birlarini tushunmay turib shoshqoloqlik bilan oila qurishi noto`g`ri. Qolaversa oila boshliqlarining yaxshi yomonni, halol va xaromni farq qila bilmasligida deb o`ylayman. Gapning isboti uchun sizga bir misol keltiray. Yaqinda bor yo`g`i ikki yil yashagan yosh oilani ajrim qildik. Bechora kelinning aybi qaynonaning ruxsatisiz issig`i chiqib behol bo`layotga nchaqalog`ini shifokor ko`rigiga olib borgani. Kelinchak qancha uzur so`ramasin, qaynona uni hurmatimni joyiga qo`ymagani uchun kelin qilmayman deb turib oldi. Achinarlisi shundaki, bu holatni qaynota ham, kuyov ham so`zsiz kuzatib turishdi. Axir oila rahnamosi hisoblangan otaning xonadondagi o`rni qayerda qoldi.

Ta`bir joiz bo`lib oilani bir chaman gulzorga qiyoslasak, otani uning bog`boni deyish mumkin. Demak shunday ekan, oiladagi totuvlik, sog`lom muxit ko`p jihatdan otaga, uning oiladagi mavqeiga zavjasi-yu farzandlariga so`zining nechog`liq o`tishiga bog`liq.

Biz yuqoridagi fikr –muloxazalarimizni bo`limimiz tomonidan o`tkazib turiladigan “oilamaktabida” qatnashayotgan bo`lajak kelin – kuyovlarga doimo u`tirib boramiz. Ko`pni ko`rgan oila boshliqlarini, shifokorlar, mutaxassislar, maxalladagi faollarni taklif etib, qo`ldan kelguncha oila ostonasida turgan yigit qizlarga hayot tushunchalarini singdirishga urinamiz.

Xar bir oilani nikohini qayd qilishda ularga oilaviy baxt tilab, hayot ostonasiga kuzatamiz!

Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo`lg`usi mol mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin. Er va xotin nikoh shartnomasida o`zaro moddiy ta`minot berish, oila xarajatlarini ko`tarish, bir birining daromadida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanish bo`yicha o`z huquq va majburiyatlarini belgilab olishga, nikohdan ajralganda er va xotindan xar biriga beriladigan mulkni aniqlab olishga, shuningdek nikoh shartnomasiga er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqa qoidalar kiritishga xaqli.

Nikoh shartnomasi er-xotinning huquq layoqati yoki muomila layoqatini, ularningo`zhuquqlarinihimoya qilish uchun sudg murojaat qilish huquqlarini cheklashni, er-xotin o`rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarini, er-xotinning bolalarga nisbatan bo`lgan huquq va majburiyatlarni tartibga solishni, mehnatga layoqatsiz ta`minot olishga muxtoj er yoki xotinning huquqini cheklovchi qoidalarni, er va xotindan birini o`ta noqulay holatga solib qo`yuvchi yohud oila to`g`risidagi qonun hujjatlarining normalariga zid keluvchi boshqa shartlarni nazarda tuta olmaydi.

### References:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O`zbekiston, 2023-yil.
2. O`zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. T.: Adolat. 2023-yil.

3. O'zbekiston Respublikasining "Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern Konvensiyasiga qo'shilish haqida"gi qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 y., 9-son, 181-modda.
4. Introduction to Intellectual Property: Theory and Practice (London, Kluwer Law International, 1997)
5. JPO Protection of Well-Known and Famous Trademarks Japan Patent Office Asia-Pacific Industrial Property Center, JIII, 1999). A full text of this is to be found at (Last accessed on 18 January 2010).
6. Maniatis, S, Trade Marks in Europe: A Practical Jurisprudence (London, Sweet & Maxwell, 2009)

INNOVATIVE  
ACADEMY